

## Tadqiqotlar davom etmoqda

O'zbekiston-Yaponiya qo'shma arxeologik ekspeditsiyasi Andijon viloyatining Jalaquduq tumani Oyim qishlog'i yaqinida joylashgan Dalvarzin shahar harobasida arxeologik qazishma ishlarini davom ettirmoqda. Mazkur shahar harobasi – nafaqat Farg'ona vodiysi, balkim O'rta Osiyodagi so'nggi bronza va ilk temir davri (mil avvalgi XII-VII asrlar) yodgorliklari ichida eng kattasi va muhimi hisoblanadi. Bu yerda yashagan aholi turli xo'jalik ishlari bilan mashg'ul bo'lganlar. Shuni hisobga olgan arxeologlar joriy yilda Dalvarzindagi xo'jalik turlarini aniqlashni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ydilar. Qazishmalarda asosiy e'tibor xayvon suyaklari va o'simlik urug'lari va qoldiqlarini aniqlashga qaratilmoqda. Tadqiqotlar davomida qadimiy ot suyagini aniqlanishi muhim natija sifatida e'tirof etilmoqda. Dastlabki izlanishlar mazkur qadimgi shahar aholisi asosan dehqonchilik va uy chorvachiligi bilan mashg'ul bo'lganligini ko'rsatmoqda.